



“SAODAT ASRI QISSALARI” ASARIDA MA‘NAVIY FAZILATLAR TALQINI

	<p><i>Doshanova Guljaxan Ismailovna</i> <i>Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent,</i> <i>Qoraqalpoq davlat universiteti</i></p>
	<p><i>Samadova Dilnoza</i> <i>Berdaq nomidagi QQDU, O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi</i></p>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Payg‘ambarimiz(s.a.v)ning hayotiy tutumlari,xulq-atvorlaridagi o‘ziga xosliklar, u muhtaram zotga berilgan bebaho sifatlar haqida so‘z boradi. Qolaversa, islomni insonlarga tanitishdagi, ularni ergashtirish yo‘lidagi jonbozliklari haqida ma‘lumotlatga boy badiiy, falsafiy asardir. Maqolada Payg‘ambarimizga xos ma‘naviy fazilatlar asardagi voqealar tizimi orqali tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Abobil qushlari, fil, Xiro to‘gi, Habashiston, Ukoz bozori.

Kirish. Adabiyotda diniy-tarbiyaviy ruhda yaratilgan ko‘plab asar va risolalar alohida bir adabiy qatlamni tashkil qiladi. Ular boshqa turdagi asarlardan, asosan, islomiy qoidalarga tayangani, diniy-falsafiy xarakteri bilan ajralib turadi. Qadimdan boshlab,Muhammad(s.a.v) payg‘ambarning hayoti va tarjimai holi, uning so‘zlari, ko‘rinishlari, sifatleri, insoniy fazilatleri, boshqalardan farq qiladigan xususiyatlari to‘g‘risida, u bilan yurgan sahobalar tomonidan naql qilingan rivoyatlar asosida ko‘plab asarlar bitilgan. Xususan, Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafu (s.a.v)ning islom olamida tutgan o‘rinlariga bag‘ishlangan asarlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bunga Abu Iso Termiziyning "Shamoili nabaviya", Muhammad Busiriyning "Qasidai burda", Muhammad ibn Solihning "Muhammadiya", Sayyid Mahmud Taroziyning "Shirin kalom", "Nurul kalom", "Nurulbasar", Alixonto‘ra Sog‘uniyning "Tarixi Muhammadiy" va boshqa ko‘plab mualliflarning asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Bu asarlarda Muhammad(s.a.v)payg‘ambarimizning jismoniy va axloqiy xususiyatlariga ta‘riflar berilgan. Bundan tashqari so‘zlashish odobi, ibodat, tibbiyotga munosabatlari, kundalik tirikchiliklari va boshqa sifatleri to‘g‘risida ham ma‘lumot berib o‘tilgan.

Asosiy qism. Ahmad Lutfiy Qozonchining "Saodat asri qissalari" Payg‘ambarimiz(s.a.v)ning tug‘ilishlaridan to vafatlariga qadar muborak hayotlarini qamrab oladi.Muallif o‘zining bu asarida aniq tarixiy voqea va hodisalardan foydalanadi. Asarda Alloh taoloning eng so‘nggi payg‘ambari Muhammad (s.a.v) ning tug‘ilishlari ham o‘zgacha bir tarzda kechadi. Payg‘ambarimiz(s.a.v)dunyoga kelganlaridan keyin ularga bobosi Abumuttalib tomonidan Muhammad ismi beriladi.Muhammad(s.a.v)ning rang-ro‘ylari benihoya chiroyli, u kishidan har doim mushk-anbarning hidi kelib turardi, atrofda hali bunday bola dunyoga kelmagan edi. Payg‘ambarimiz(s.a.v)insonlar orasida eng chiroyli,tashqi ko‘rinishlari eng go‘zal kishi edilar.Bo‘ylari haddan ortiq baland ham past ham emas edi.Muhammad(s.a.v) payg‘ambarimiz ota-onasi vafot etganidan keyin bobosi tomonidan tarbiyalanadi. Muhammad(s.a.v) o‘zining tengdoshlaridan tarbiyaliligi,o‘tkir zehnga egaligi bilan





ajralib turgan. Bu bolaga Alloh tomonidan shunday xislat berilgan ediki, Muhammad(s.a.v)qaysi xonadonda yashasalar, o'sha xonadondan baraka arimas edi. Shu sababli atrofda gilarining bu bolaga mehri o'zgacha edi.

Muhammad(s.a.v) bobosidan keyin amakisi Abu Tolib qo'lida tarbiyalanadi. Abu Tolib jiyaniga o'zining farzandidek mehr beradi. Muhammad(s.a.v) 25 yoshlarida Xadicha ismli ayolga uylanadi va tijorat ishlari bilan shug'ullanadi. Muhammad(s.a.v)ning 3 o'g'il(Qosim,Abdulloh,Ibrohim) va 4qiz(Zaynab, Ruqayya, Ummu Gulsum, Fotima) farzandlari bo'lgan.

Muhammad(s.a.v)ga Xiro to'g'ida Alloh tomonidan Jabroil vahiy qilib yuborilgan. Shu paytdan boshlab Muhammad(s.a.v)payg'ambar bo'ladi. Bu paytda u kishi 40 yoshda edilar. Muhammad(s.a.v) payg'ambar bo'lganlaridan keyin odamlarga namoz o'qishni o'rgatadilar va shu bilan ularni islom diniga o'tishga chorlaydilar. Payg'ambarimiz(s.a.v) o'zining muloyimligi, bag'ri kengligi, sabrliligi kechirimli ekanliklari bilan ajralib turganlar. Bundan tashqari, Alloh janobi Payg'ambarimizga shukrona, adolat, saxiylik va shunga o'xshash bir qancha xislatlarni bergan.Insonda mavjud tabiiy yo'sindagi kamolot xususiyatlarining barchasi Payg'ambar alayhissalomning vujudlarida mavjud edi.Payg'ambar alayhissalom tozalikda,ifloslikdan yiroqlikda alohida xususiyatlarga ega edilar,ki,bunday fazilatlar u Zoti muborakdan boshqa kishida topilmasdi [1.65].

Muhammad(s.a.v)payg'ambarimiz maxsus saboq olmagan,xat-savod chiqarmagan,dunyoviy va diniy kitoblarni ko'rmagan bo'lishlariga qaramay, odamlarga juda ko'p ilmlarni o'rgatdilar va shariatni barpo etdilar.Payg'ambar alayhissalomning nutqlari benihoya fasohatli va chuqur ma'noli edi.Gaplari sun'iylikdan xoli,ravon,jumlalari lo'nda,qisqa,tushunarli,fikrlari aniq va mazmunli edi.U kishining suhbatlari shirin,dilni yayratadigan kayfiyatda o'tardi.Payg'ambarimiz(s.a.v)tamadan xoli edilar,boylikka qiziqmas,juda ko'p joylarda to'g'dek uyulib yotgan molk-mulkka loaqal ko'z qirini tashlab qo'ymas edilar.U kishi bahs-munozarani, ko'p savol so'rashni, molni isrof qilishni, qiz bolalarni tiriklayin ko'mishni man qilib,aytgan gaplari ham ayni donolikning nishonasi edi.

Muhammad(s.a.v) islom dinini tarqatish uchun ko'p harakat qilgan. Atrofdagilar uni yomon ko'rib qolsalar ham, bu yo'lda turli qarama-qarshiliklarga duch kelsalarda, o'z yo'lidan qaytmaganlar. Payg'ambarimiz(s.a.v)ga dushmanlari tomonidan bir qancha suiqa'sdlar uyushtirilgan, lekin ularning barchasi befoyda bo'lgan. Makkada haj amalini o'tashga kelganlarga Payg'ambar(s.a.v)ni seherga unga ishonmanglar deb ko'rsatadilar. Lekin Payg'ambarimiz(s.a.v) Allohning topshirig'i - islom dinini tarqatishdan aslo to'xtamaydilar. Muallif ushbu voqealarni mahorat bilan badiiy tasvirlagan-ki, kitobxon asarni o'qish asnosida janobi payg'ambarimizdan inson komoloti uchun zarur bo'lgan insonparvarlik, jasorat, mardlik, adolatparvarlik, qat'iyat, sabrlilik, irodalilik, mehribonlik, halimlik, vatanparvarlik kabi xislatlarni o'rganadilar.

Darhaqiqat, Payg'ambarimiz o'zlarining ma'naviy xislatlari bilan barchaga o'rnak bo'lganlar. Payg'ambar alayhissalomning muloyimligi,bag'ri kengligi,o'ch olishga qodir bo'la turib,avf etishlari,boshlariga musibat tushganda,chidam bilan yengishlari,sabrliliklari hammamiz uchun ibratdir. Masalan, u kishining kechirimli va sabrli, keng fe'l sohibi ekanliklarini Makka fath etilgan kuni Payg'ambarimizning dillarini qattiq og'ritganlar, masxaralab ustlaridan kulgan, musulmonlarni yurtidan quvib chiqargan va ularga qarshi urush boshlagan Quraysh mushriklarini avf etganlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. U kishi dushmanlariga ham yaxshilik tilar,ammo Alloh dushmanlarini aslo kechirmas,ularni albatta jazoga tortar edi.

Shu bilan birgalikda,Payg'ambarimiz(s.a.v) mard inson bo'lganliklarini jang paytidagi hatti-harakatlarida kuzatamiz. Barcha qaltis va ziddiyatli vaziyatlarda orqaga chekinayotganida, u kishi gochishni xayollariga ham keltirmaydilar. Aksincha, barchani kurashishga undaganlar.U kishi chinakam qahramon edilar.Ko'p ming sonli dushman qo'shinlari qarshisida o'zining oz sonli





jangchilari bilan necha bor qilt etmay mardonavor turgani buni tasdiqlab turibdi. Paygʻambar alayhissalom koʻgilli, bir tomchi qon toʻkilishini istamaydigan, goyat mehr-shavqatli shaxs edi [2.123].

U sulhparvar, tinchliksevar inson edi. Minglab sahobalari gayrat-shijoatga toʻlib, jang maydoniga tushishga shay daqiqalarda ham sulhu-saloh yoʻlini tanlagani, dushmanlar bilan yarashish bitimiga imzo chekkani ham maʼlum.

Paygʻambarimiz (s.a.v) ga saxiylik bobida zamondoshlari orasida teng keladigan odam yoʻq edi. Birov nima soʻramasin, u kishi yoʻq demas edilar. Tasulullohning qoʻllari haddan tashqari ochiq, ayniqsa, ramazon oyida saxiy boʻlib ketardilar. Islom diniga moyil odamlarga juda koʻp mol-mulk berganlari u kishining saxovatli ekanliklarining dadilidir.

Paygʻambarimiz alayhissalom azaldan eng ishonchli, rostgoʻy odam edilar. Rasulullohning bu fazilatlarini hatto dushmanlari ham eʼtirof etishardi. Paygʻambarlik sharafiga erishmaslaridan oldin ham u kishini amin yaʼni ishonchli deb atashar edilar, hamma birdek hurmat qilardi. Paygʻambarimiz (s.a.v) eng ishonchli odam boʻlganliklari uchun ayollari Xadichaning karvonini boshqarganlar. Safar davomida ham kasal boʻlib qolgan tuyalarni soʻymasdan, ularni davolaganlari uchun atrofdagilarning u Zotga boʻlgan mehr-muhabbati yanada oshadi. Muhammad (s.a.v) paygʻambarimiz atroflaridagi barcha insonlarga mehribon, marhamatli edilar. Rasululloh namoz oʻqiyotgan paytlarida yosh bolaning yigʻalaganini eshitsalar, ibodatni qisqartirardilar. Odamlarning boshiga kulfat tushsa, ularga har doim yordam berishga intilar edilar. Paygʻambar alayhissalom chaqirilgan joyga har doim borardilar, berilgan sovgʻa kam boʻlsa-da qabul qilardilar va undan ortiq qilib qaytarardilar. U yerda insonlar bilan suhbatlashib, dardlashib koʻngillarini chigilini yozardilar, ularni ham oʻz hujralariga taklif qilar edilar, Madinaning chekkasidagi kasallarni ham borib koʻrardilar. Koʻrishganda ham boshqalar qoʻlini tortib olmaguncha, qoʻllarini tortib olmas edilar, har doim birinchi boʻlib salom berardilar. Uylariga tashrif buyurgan mehmonning huramatini joyiga qoʻyib, kelgan mehmonni toʻrga oʻtirgizardi. Uning gapini boʻlmasdan oxirigacha tinglar edilar. Sahobalarning ism-sharifini toʻliq aytib, ularni hurmatlab, eng yaxshi koʻrgan ismlari bilan murojaat qilardilar. Paygʻambar alayhissalom vafodor, soʻzining ustidan chiqadigan inson boʻlgan. Bergan vaʼdalarini har doim bajarib kelganlar va atrofdagi insonlarga ham berilgan vaʼdaning ustidan, albatta, chiqish kerakligini taʼkidlaganlar. Odamlarga vaʼda berib, uni bajarmaslik savob emas, balki gunoh ekanligini tushuntirganlar.

Bundan tashqari, Paygʻambarimiz (s.a.v) yuksak martabali shaxs boʻlishiga qaramasdan, kamtarin inson boʻlganlar. U Zotga podsho-paygʻambarlik bilan banda-paygʻambarlikni tanlash imkoniyati berilganda, u kishi banda-paygʻambarlikni tanlaydilar. Paygʻambarimiz (s.a.v) ning bunday xislatlaridan koʻpchilik oʻzi uchun xulosa olgan. Ahmad Lutfiy Qozonchi bu asarda yuksak martabali zot haqidagi voqea hodisalarni tarixiy haqiqatga asoslangan holda badiiy tasvirlagan. Paygʻambarimizning kundalik hayotda amal qilgan va insonlar maʼnaviy olamiga taʼsir qiluvchi va hayotlarida dasturulamal qilishi kerak boʻlgan insoniy xislatlar va fazilatlarini targʻib qilgan.

Xulosa. Haqiqatan, asarda Muhammad (s.a.v) paygʻambar komil inson sifatida taʼriflanadi. Asarda Muhammad (s.a.v) oʻzlarining goʻzal sifatleri, axloqi bilan barchaga oʻrnak boʻladilar. Bugungi kunda ham Paygʻambarimiz (s.a.v) ning odatlari, aytgan soʻzlari yetkazgan xabarlariga musulmon xalqlari tomonidan turmush tarzining muhim qoidalari, namunalari sifatida amal qilinib kelinmoqda. Bu amallar insonlarga nafaqat maʼnaviy-axloqiy, jismoniy naf keltirmoqdaki, ularning sogʻlik-salomatligimizdagi oʻrni xalqaro ilm ahli, zamonamizning yetuk olimlari tomonidan hayrat bilan eʼtirof etilmoqda. Alloh Paygʻambarimiz (s.a.v) ni shariatining pokizaligi bilan yanada yuksak kamolotga erishtirdi. Islom anʼanasida Muhammad (s.a.v) paygʻambar hech qanday gayritabiyy, ilohiy xususiyatga ega emasligi, balki





hamma kabi oddiy odam, lekin Allohning chin va oxirgi paygʻambari ekanligi qayd etiladi. Asar voqealari davomida paygʻambarimizning islom dinini targʻib qilish yoʻlidagi jonbozliklarini, bu yoʻldan qaytmaganliklarining guvohi ham boʻldik. Bu boradagi qancha qiyinchiliklar boʻlsa ham, hammasiga sabr qildilar. Qancha ziyon-u zahmatlardan omon qoladilar. Bu asardagi Paygʻambarimizning qilgan ishlari, ezgu amallari, fazilatlarini nafaqat oʻsha davr odamlari, balki bugungi kun yoshlari uchun ham katta tarbiya vazifasini bajaradi desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Vatanimiz mustaqilligini yuksak maʼnaviyatni qaror toptirish orqali mustahkamlash mumkin. Shu bois mazkur asar mutolaasi kitobxonlarda maʼnaviy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish yoʻlidagi muhim manbalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Lurfiy Qozonchi "Saodat asri qissalari" 1,2,3,4 kitob. Toshkent., Munir. 2021. [1,65 b]
2. Jabborov N. Maʼrifat nadir. Toshkent.: Maʼnaviyat., 2010.[2,123 b]

